

**JDFU Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo`nalishi 1-kurs
542-22 guruh talabasi Hasanova Mohlaroyim Dilshod qizi.**

Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi – Xitoy tajribasida.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada O'zbekistondagi MTMLlarda ta'lim sifatini oshirish maqsadida chet el, xususan, Xitoy tajribasiga asoslangan zamonaviy metodik usullar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar:multimedia,o'qitish samaradorligi,motivatsiya,jumboq o'yinlar.

Qishloq joylardagi boshlang'ich maktab o'quvchilari odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo'lgan sharoitda o'sishadi va bolalarning fikrlashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson metodikalar orqali, o'quvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda o'qituvchilar banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. Bolalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun sinfdagi narsalar orqali ularni chet tilida qo'llanilishini o'rgatib borishadi. O'qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda o'qituvchilarning metodikasi katta ro'l o'ynaydi. Misol uchun, tegishli so'zlarni o'rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko'rsatib uni gapirishga undaysiz, o'quvchilar so'zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so'zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so'zni takror talaffuz qildiriladi. So'zlarni o'qitishda o'qituvchilar matn mazmunini belgilab olishlari va o'quvchilar e'tiborini jalb qilish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda so'zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e'tiborini tortishlari mumkin bo'ladi. Shuning uchun hozirda Xitoyda tarbiyachidan rasm chizish mahoratiga ega bo'lish talab qilinadi. Bu nafaqat o'qitishning qiyinchiliklarini qisqartiribgina qolmay, balki o'quvchilarni o'rgangan bilimlarni asta-sekin mustahkamlashga yordam beradi.

O'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zlaridagi yutuqlarni his etishlari uchun har bir o'quv mashg'ulotiga mukammal yondashish kerak. Ana shundagina bolalarda o'rganishga motivatsiya uyg'onadi. Hozirgi kunda xitoylik bog'cha yoshidagi bolalar yangi bilimni qabul qilish imkoniyatlari juda ilgari ketganligi sababli bog'chalardagi o'qitish dasturlari shunga mos ravishda intensivlashtirilgan. Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuyladilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqni so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez aytishlarni, yoki bo'lmasam bolalar yaxshi ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak. Multfilmlar bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Hozirgi kunda Xitoydagi barcha bog'chalar multimedia qurilmalari bilan ta'minlangan. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda. Bu zerkilarli til darslarini qiziqarli kunlik o'yinga aylantiradi. Xitoy bog'chalarida bir guruhda 10 ga yaqin tarbiyalanuvchi bo'lib, tarbiyachi muntazam har bir bolani psixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usuli qo'llaniladi. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo'lib qolishni emas bir vaqtning o'zida rassom, musiqachi, chet tili o'qituvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo'lishni ham talab qiladi. Albatta hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda Xitoyliklar yosh avlodlarga bu borada juda katta qulayliklarni yaratib berishmoqda.

Olinggan ko'nikmalarni mustahkamlash uchun jumboq o'yinlardan foydalanish.

Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rqmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi. O'yining turlari juda ko'p misol uchun tarbiyachi "qopda nima bor degan" o'yini bolalar bilan o'ynashi mumkin. Xonadagi kichik buyumlarni xaltachaga solib, bolalarga birma bir olishriga ruhsat beradi va bolalar bu buyumlar nomini ingliz tilida aytib berishadi. "Is it a banana(an apple, an orange)?" tarbiyachi baholashga kirishadi, va eng ko'p bal to'plagan guruhni taqdirlaydi. Shu bilan bolalar yanada chet tiliga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bolalar o'rtasida musobaqalar judayam muhim, sababi bolalarda yoshligidan raqobat tuyg'usini shakllantirib borish kerak bo'ladi. Ana shudagina har bir bolada motivatsiya tilga bo'lgan qiziqish uyg'onadi. Xitoyliklar Insoning barcha qiziqishlari raqobat orqali keladi deb fikir yuritishadi. Buni bolalar timsolida ham korishimiz mumkin, ularda bu yo'l orqali jamlilikni, raqobat orqali raqibini bilishni atrofni o'rganishni o'rgatadi.

O'qitish samaradorligini oshirish uchun multimediyadan foydalanish.

Multimedia orqali o'qitish tarbiyachiga katta imkoniyatlarni beradi. Bunda bollalarning qiziqishini yuqori darajagacha ko'tarish va ularning e'tiborini uzoq vaqt jalb qilib turish mumkin. Bu orqali bollarning tilga bo'lgan ko'nikmalarini yanayam ortganini korishimiz mumkin. Agarda mavzuyimiz "Animals" bo'lsa biz har xil hayvonlarni nomlarini o'qitishda avval ularning tovushlaridan foydalanamiz bolalar bunga qattiq e'tibor qaratishadi, va shu zahotiyot cat, tiger, bear....deb hayvonlar nomlarini ayta boshlashadi.

Tarbiyachi kerakli natijalarga erisha olmaslik sabablari.

Tarbiyachida bolalarga savol-javobni to'g'ri qo'yilmasligi. Juda ko'p bog'cha yoshidagi bolalar kam gap, tabiatan yoqtirmagan narsasi uchun juda e'tiborsizlik bilan munosabat bildiradi. Buni yengib o'tish tarbiyachidan katta mashaqqatni talab etadi, uning berayotgan savollari tarbiyachining donoligini va bu mavzuni o'zi juda muhim egallaganini bildirib turishi kerak. Biz bolalar bilan ishlagan chog'imizda shuni bildiki bolalarning sezgi o'rganlari biznikidan ya'ni katta yoshdagilardan ancha yuqori. Ular buni ifoda eta olmasalarda lekin his qilib turishadi, va o'zlarining hatti harakatlari bilan namoyish qilishadi. Odatda savol-javobni biz bir necha qisimga bolamiz:

i. Tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasidagi to'siqlarning olib tashlash, tarbiyalanuvchi bu yo'l orqali bollar qalbiga yo'l topa oladi. Ularga muloyimlikni sezdirib savol-javobga kirishishi kerak bo'ladi.

ii. Barcha tarbiyachi bolalarning psixologiyasiga asoslanib savollarni bera olishi kerak, bu undan bolaning til darajasiga asoslanib savol tayyorlashni talab qiladi. Biz bog'cha yoshidagi bolalarga qay yo'l bilan o'rgatmaylik baribir bolalar orasida biroz bo'lsada tildagi tafovutni sezishimiz mumkin, ularning qabul qilish darjasi har xil bo'ladi.

iii. O'tilgan mavzulardan ko'proq so'rash, bu uladagi hayajoni yoqatadi, ulada yangi mavzuga ko'nikma hosil bo'lgunga qadar, biroz bo'lsada yangi mavzuga nisbatan hayajon saqlanib turadi, buni yengib o'tishga tarbiyachi kuchli yondashishi kerak.

Shu o'rinda mavzuyimizga hulosasi yasab bir qancha tavsiyalarni berib o'tamiz.

a. Xitoyda yangi ommaviy multimedia vositalari ta'lim sohasida keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda o'quv vositalari sifatida, Internet va multimedia texnologiyalari bolalar bog'chalarida samarali qo'llanilib, kichik yoshdagi bolalarning ta'limiga yangi ko'nikmalarni olib kelmoqda. O'zbekistonda bolalar

bog'chasida yangi multimedia texnologiyalari dasturni rivojlantirish hozirgi kunda eng muhim mavzudir. Raqamli texnologiyalar maktabgacha ta'limning asosiy modelidir, bolalikdan boshlab sifatli ta'lim asosida bolalarni tarbiyalash va o'qitish zarur. O'zbekistonda yangi ommaviy multimedia vositalarini bog'chalarga tadbiiq qilish, bu kelajak avlod chet tilini o'rganishga katta hissa qo'shadi.

b. Bolalik davrida insonining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun eng yaxshi vaqt deb hisoblash mumkin. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarining o'qituvchilari bolalarning ehtiyojlariga(qiziqishlariga) asoslanib fanni qo'llashlari kerak. fikrlash mashqlari va aqliy rivojlantirishni yangi multimedia texnologiyalari yordamida, eshitish, rang bilish , shakl tanlash qobiliyatini shakllantirib borish zarur. Bolalarning tashqi axborotni qabul qilish qobiliyatini oshirish va ko'p qirrali fikrlashini rivojlantirishga ko'maklashish juda zarur.

c. Biz maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda chet tilida eshitish qobilyatining oqsoqligini ko'p uchratishimiz mumkin, bu bolalarning yetarli darajada eshitish darslarini egallamagini bildiradi. Real hayotda bolalalarimiz televizor ostida animatsion multfilmni jimgina tomosha qilishlarini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda bog'chalarning yuqori texnologiyalar bilan taminlash vaqti yetib keldi. Ularga doimiy chet tillaridagi multfilm darslani eshitirish lozim, bolaning bo'g'cha davridan chet tili qobilyatini rivojlantirish uning keyingi bosqichda barcha bilimlarni yengil qabul qilishiga yordam beradi.

d. Bog'cha yoshidagi bosqichda til qobiliyatining rivojlanishi asosan doimiy taqlid orqali shakllantiriladi va ko'pgina ro'llar ko'pincha multfilmlarda taqlid orqali paydo bo'ladi, Shuning uchun, multfilmni tomosha qilayotganda, bolalarning harakatlardagi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, multfilmni samarali ta'lim vositasi sifatida qo'llashimiz mumkin, bu esa bolalarning ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda ba'zi ota-onalar bolalarning multfilmga bo'lgan qiziqishidan juda tashvishga tushishadi, ammo

aslida, yosh bolalarning rivojlanishidagi ularning fantaziya dunyo qarashini shakllanishining asosiy omili bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun, o'qitishda biz Amerika Qo'shma Shtatlarining masofadan boshqarish usuli ya'ni, multfilmlarni bolalarning til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish usuliga aylantirishimiz mumkin. Barchamiz bilamizki, bu bosqichda yosh bolalar o'zlarining fikrlash qobiliyatlari va tilni qo'llash qobiliyatini haqiqiy hayot tajribasidan o'rganib boradilar, ayniqsa bu bosqichdagi yosh bolalar uchun multfilmlar bilan muloqot qilish, Masofadagi masovaviy hissiy jihatini kengaytirib, bolalarning til bilimi darajasini oshirish uchun hizmat qiladi.

Aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshdagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.
2. Liu wang. ertong xinglixue kaocha[J]. 2017-18.
3. Feng Wang, Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education [J]. Early Childhood Educ